

Mavzu: **Soʻz**

Aa Sentyabr – kuzning boshi,
xazonrezgilik oyi.



1-mashq. Toʻgʻri javobni moslashtiring.

1. Asos

2. Soʻz yasovchi
qoʻshimchalar

3. Soʻzlarni oʻzaro
bogʻlovchi
qoʻshimchalar

A. soʻzlarni bir-biriga
bogʻlaydigan, yangi
soʻz yasamaydigan
qoʻshimchalardir.

B. oʻzakdan anglashilgan
maʼno bilan bogʻliq yangi
soʻz hosil qiladi.

D. barcha yaqin maʼnoli
soʻzlardagi umumiy qismidir.



2-mashq. Koʻchiring. Soʻz yasovchi va soʻzlarni oʻzaro
bogʻlovchi qoʻshimchalarni aniqlang.

Chivin va Ari



Chivin deydi: – Bolari,
Buncha ishlab tinmayсан?
Zerikmayсанmi ishdan?
“Uf, charchadim”, demaysan?

– Menga kuch berar gulzor²,
Bekorchidan hamma bezor.
Kim mehr qoʻysa ishga,
Vaqt topmas zerikishga.

Dilfuza Kamoljanova





3-mashq. Rebusni yeching. So'z tarkibi bo'yicha izohlang.

1 TAD + 1 + KOR

2  + DO'Z

3  + CHI

4  + DOR

5  + PAZ

6  + LI

- Rebusdagi so'zlardan og'zaki gaplar tuzing.



4-mashq. Rasmlarni kuzating. Har bir rasimga ikkitadan gap tuzing.



Foydalanish uchun so'zlar: kuz, gullar, sayohat, savat, pirog, chodir, gulxan, dala.

- Tuzgan gaplaringiz ichidan so'z yasovchi va so'zlarni o'zaro bo'g'lovchi qo'shimchalarni aniqlang.



5-mashq. Nuqtalar o'rniga qavs ichida berilgan qo'shimchalardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Odob... (-li, -siz, -chi), ilm... (-ga, -li, -kor), barkamol va shijoat... (-ni, -siz, -li) farzandlar bizning kelajagimizdir.
2. Mehnat... (-siz, -dan, -ga) kelsa boylik, turmush bo'lar chiroy... (-li, -siz, -dan).
3. Dunyo... (-ni, -dan, -ga, -ning) ishlari... (-ni, -ga, -da) hayron qolmay ilojing yo'q.



6-mashq. Noto'g'ri qo'llanilgan qo'shimchalar o'rniga so'z yasovchi qo'shimchalardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

Namuna: Oshkor amaki palov pishirdi. → *Oshpaz* amaki palov pishirdi.

1. Odobkor va tartibchi bolalar ovqatlanish odobiga doim rioya qilishadi.
2. Gulpaz ayol issiqxonada chiroyli atirgullarni parvarish qilyapti.
3. Maktabimiz oshxonasidagi oshchi bizga mazali somsa pishirib berdi.
4. Dilnoza buvijonining tug'ilgan kunida guldon ro'mol sovg'a qildi.

